

BIZNES SUBYEKTLARIDA EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Mamayusupov Shukurbek Abduroziq o'g'li

Bank moliya akademiyasi magistranti

Anotatsiya

Mazkur tadqiqot ishida biznes subyektlarining eksport-import operatsiyalari hozirgi holati tahlil qilingan. Unda O'zbekiston tashqi savdo faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlar, xizmatlar eksporti va kichik biznes subyektlarining tashqi savdodagi ulushi o'rganilgan. Shuningdek, eksport va import ko'rsatkichlaridagi dinamik o'zgarishlar, hududlar kesimidagi farqlar hamda kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi roli tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznesning tashqi savdoda faol ishtirok etishi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va diversifikatsiyalashuviga sezilarli hissa qo'shayotganini ko'rsatadi.

Abstract

This research analyzes the current state of export-import operations of business entities. It studies the reforms implemented in Uzbekistan's foreign trade activities, the growth of services exports, and the share of small businesses in external trade. In addition, the dynamic changes in export and import indicators, regional differences, and the role of small businesses in foreign economic activities are examined. The findings show that the active participation of small businesses in foreign trade significantly contributes to the country's economic stability and diversification.

Kalit so'zlar: Eksport, import, kichik biznes, tashqi savdo, diversifikatsiya, xalqaro bozor, iqtisodiy islohotlar, xizmatlar bozori.

Keywords: Export, import, small business, foreign trade, diversification, international market, economic reforms, services market.

Kirish

Bugungi global iqtisodiy makonda mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning intensivligi va miqyosi ortib bormoqda. Xalqaro integratsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida eksport va import operatsiyalari milliy iqtisodiy siyosatning ajralmas

tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, ular iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilanishlarni tezlashtirish hamda tashqi bozorlarda raqobat ustunligini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, biznes subyektlarining xalqaro bozorlardagi faoliyati mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur’atlari, tashqi savdo balansi va valyuta tushumlari hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston oxirgi yillarda tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish va diversifikatsiya qilish borasida izchil siyosat olib bormoqda. Bojxona rasmiylashtiruv tartiblarini optimallashtirish, eksportchilar uchun moliyaviy va fiskal rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish, xalqaro transport-logistika tizimini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, yangi savdo yo‘nalishlari va hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish kabi chora-tadbirlar tashqi iqtisodiy aloqalarni sezilarli darajada jonlantirdi. Shu bilan birga, jahon bozorlarida talab va taklif muvozanatining tez o‘zgarishi, iqtisodiy inqirozlar, transport-kommunikatsiya zanjirlaridagi uzilishlar, shuningdek geosiyosiy vaziyatdagi beqarorlik eksport-import faoliyatini boshqarishda moslashuvchan, strategik va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni talab qilmoqda.

1 – jadval

2020 – 2024 yillarda xizmatlar eksporti (xizmatlar turi bo‘yicha, yillik)

Sohalar	2020	2021	2022	2023	2024
Xizmatlar eksporti	2005	2581,7	4456,7	5640,4	7571,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	7,2	12,9	16,5	24,2	27,7
Transport	1426,1	1744,1	2204,7	2440,4	2794,3
Safarlar (turizm)	255,8	422,1	1609,8	2143,1	3519
Sug'urta va pensiya xizmatlari	17,2	27,6	55	87,2	67,5
Moliyaviy xizmatlar	21,1	27,6	73,2	63,1	72,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan intellektual mulkdan foydalanish uchun to'lovlar	0,2	0,6	1,2	20,3	17,2
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	169,5	180,7	305,8	540,4	640,8
Jismoniy shaxslarga xizmatlar va madaniyat va dam olish xizmatlari	0,4	1,4	1,3	11,2	16,6
Boshqa xizmatlar	107,5	164,7	189,1	310,7	416,1

Manba: <https://stat.uz/> (2025) rasmiy sayt ma'lumotlaridan olingan.

Berilgan jadvalga ko'ra O'zbekistonda 2020–2024 yillar davomida xizmatlar eksporti barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Xususan, 2020 yilda 2005 mln. AQSh dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2024 yil yakuniga kelib 7571,7 mln. dollarga yetdi. Ushbu o'sish mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar va tashqi bozorlarga xizmatlarni kengaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarning samarali natijasidir.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, transport xizmatlari yetakchilikni saqlab qolmoqda. 2020 yilda bu ko'rsatkich 1426,1 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 2794,3 mln. dollarga oshdi va sohada nisbatan barqaror rivojlanish kuzatildi.

Turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan yo'nalish sifatida ajralib turdi. 2020 yilda safarlar eksporti 255,8 mln. dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 3519 mln. dollarga yetdi. Bunday o'sish O'zbekistonda turizm infratuzilmasi rivojlanishi, xizmatlar sifati yaxshilanishi hamda mamlakatning xalqaro turistik bozordagi imijini faol targ'ib etish ishlari bilan izohlanadi.


Shuningdek, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari ham jadal o'sib bormoqda. 2020 yilda 169,5 mln. dollar bo'lgan ko'rsatkich 2024 yilda 640,8 mln. dollarga yetgan bo'lib, bu O'zbekistonning IT xizmatlari eksporti bo'yicha imkoniyatlari kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Sug'urta va pensiya xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, intellektual mulk obyektlari bo'yicha to'lovlar, madaniyat va dam olish xizmatlari segmentlarida ham ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Masalan, sug'urta xizmatlari 2020 yildagi 17,2 mln. dollardan 2023 yilda 87,2 mln. dollarga yetgan bo'lsa-da, 2024 yilda 67,5 mln. dollargacha kamaydi.

Bundan tashqari, "boshqa xizmatlar" yo'nalishi ham sezilarli o'sishga erishdi. 2020 yilda 107,5 mln. dollarni tashkil etgan ko'rsatkich 2024 yilga kelib 416,1 mln. dollarga yetdi.

Umumiy hisobda, 2020–2024 yillar davomida xizmatlar eksporti hajmi 3,8 baravardan ko'proqqa oshgan. Bu esa xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida tobora muhim o'rin egallayotganini, iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinishi jarayoni samarali

davom etayotganini hamda mamlakatning jahon iqtisodiy aloqalariga chuqur integratsiyalashayotganini ko'rsatib turibdi.



1 – rasm Kichik biznes va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda

Manba: <https://stat.uz/> (2024) rasmiy sayt ma'lumotlaridan olingan.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2021–2025 yillar oralig'ida kichik biznes va mikrofirmalar sonida sezilarli darajada o'zgarishlar sodir bo'lgan. Grafikda fermer va dehqon xo'jaliklari hisobga olinmagan holda faqat korxona va mikrofirmalarning umumiy soni ming birliklarda ifodalangan.

2021 yilda ularning soni 411,2 ming bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 462,8 mingtaga yetgan. Mazkur davrda ijobiy o'sish kuzatilgan va kichik biznes subyektlari faoliyatida sezilarli faollashuv yuz bergan. Eng yuqori natija 2023 yilda qayd etilib, korxonalar soni 523,6 ming birlikka ko'tarilgan. Bu esa kichik biznes sohasida yangi tashabbuslarning ko'paygani va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali ishlaganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, 2024 yildan boshlab pasayish jarayoni kuzatilgan: ushbu yilda kichik biznes va mikrofirmalar soni 417,1 mingtaga tushgan. 2025 yilga kelib esa kamayish jarayoni davom etib, ko'rsatkich 358,1 ming darajasida qayd etilgan.

Umumiy tahlildan ko‘rinadiki, 2021–2023 yillar davomida kichik biznes subyektlari soni izchil ko‘paygan bo‘lsa, 2024–2025 yillarda ular sezilarli darajada qisqargan. Bu jarayon mamlakatdagi iqtisodiy sharoit, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishdagi o‘zgarishlar hamda bozor kon’yunkturasiga bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.11.2017 yildagi PQ-3351-son Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida, Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish, tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarning eksport hajmlari va turlarini ko‘paytirish, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida:

1. Shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq:

b) tadbirkorlik subyektlariga (ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ko‘p bo‘lgan tashkilotlardan tashqari, “O‘zsanoateksport” aksiyadorlik jamiyati bundan mustasno) tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini oldindan to‘lov, ochilgan akkreditiv, rasmiylashtirilgan bank kafolati va eksport kontraktini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish bo‘yicha polis mavjud bo‘lmasdan xorijiy valyutaga eksport qilish huquqi beriladi, ushbu qarorga ilovada ko‘rsatilgan tovarlar (keyingi o‘rinlarda xom ashyo tovarlari deb ataladi) bundan mustasno;

Eksport qilinayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimida (keyingi o‘rinlarda — TSOYAEA) hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma’lumotnomasiz amalga oshiriladi, ushbu qarorga [ilovada*](#) ko‘rsatilgan xom ashyo tovarlari, shuningdek, invoys asosida eksport qilinadigan tovarlar bundan mustasno;

Belgilansinki, tovarlar, ishlar va xizmatlar eksporti faqat oldin amalga oshirilgan eksport operatsiyalari bo‘yicha tadbirkorlik subyektida muddati o‘tkazib yuborilgan debitor qarzдорlik mavjud bo‘lmaganda ushbu kichik band shartlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Bunda eksport qiluvchilarga tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini oldindan to‘lov, ochilgan akkreditiv, shuningdek, xaridor banklarining kafolati yoki eksport kontraktini siyosiy va tijorat tavakkalchiliklaridan sug‘urta qilish bo‘yicha polis mavjud bo‘lishi shartlarida eksport qilish huquqi saqlanadi.

Tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlik hosil bo'lganligi uchun bevosita tadbirkorlik subyektlari javob beradilar;

v) import operatsiyalari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlik hosil bo'lganligi uchun import qiluvchilarga (ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan tashkilotlardan tashqari) nisbatan eksport operatsiyalari bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarzdorlikka yo'l qo'ygan eksport qiluvchilar uchun nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi;

g) yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) ta'siri yuzaga kelgan holatda xorijiy valyutadagi tushumning tushishi muddati ushbu ta'sir yuz bergan davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan yengib bo'lmaydigan kuchning amal qilishi davriga uzaytiriladi;

d) tovarlar, ishlar va xizmatlar eksport qiluvchining hisob raqamiga eksport kontraktini sug'urtalash polisi bo'yicha sug'urta qoplamasi summasi (milliy va/yoki xorijiy valyutalarda) tushganda, ushbu eksport kontrakti bo'yicha debitor qarzdorlik summasi moliyaviy sanksiyalarni qo'llash maqsadlari uchun sug'urta qoplamasi summasiga kamaytiriladi;

e) bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar qo'llanilgan holda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini tasdiqlash uchun import qiluvchilar tomonidan eksport bojxona yuk deklaratsiyasi majburiy taqdim etilishi bo'yicha talab bekor qilinadi;

j) "vaqtincha olib kirish" bojxona rejimi ostidagi tovarlarni qayta eksport qilishga davlat bojxona xizmatlari organlari tomonidan ruxsatnoma berilishi bo'yicha talab bekor qilinadi." (lex.uz 2024)

Mazkur qonunga binoan tadqiqotda kichik biznes subyektlarining mamlakatimiz iqtisodiy tizimidagi import va eksport jarayonlaridagi o'rni va ulushi chuqur tahlil etildi. Olingan statistik ko'rsatkichlarga tayangan holda, 2010-yildan boshlab 2024-yilning uchinchi choragigacha bo'lgan davr mobaynida kichik biznesning milliy hamda xalqaro savdo faoliyatidagi dinamikasi atroflicha o'rganildi. Tadqiqot natijalari esa quyida batafsil bayon qilinadi. (2019)

Kichik biznesning importdagi oʻrni: Tahlil qilingan davr mobaynida kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat umumiy importida barqaror ulushga ega boʻlib, u asosan 22–25 foiz oraligʻida shakllangan. Ushbu koʻrsatkich kichik biznesning import jarayonlarida faol ishtirok etayotganini va ular tomonidan olib kirilayotgan mahsulotlarning milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyat kasb etishini anglatadi.


2015-yilda kichik biznesning importdagi ulushi 28 foizni tashkil etgani, import hajmlarining kengayishi bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi nufuzi oshganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 2020-yilda global pandemiyaning salbiy taʼsiri natijasida mazkur koʻrsatkich 20 foizgacha qisqardi. Bunga asosan xalqaro logistika tizimidagi uzilishlar hamda import mahsulotlariga boʻlgan talabning kamayishi sabab boʻlgan.

Keyingi yillarda esa kichik biznesning importdagi ulushi tiklanish tendensiyasini koʻrsatdi. Jumladan, 2023-yilga kelib u 26 foizga yetdi. Bu davrda, ayniqsa, sanoat ehtiyojlari uchun zarur boʻlgan xomashyo, ilgʻor texnologik jihozlar va ishlab chiqarishga moʻljallangan boshqa mahsulotlar importi sezilarli darajada oshdi.

2 – rasm. Biznes subyektlarining jami mahsulot importidagi ulushi

Manba: Stat.uz sayt maʼlumotlaridan foydalanib mualif ishlanmasi.

Keltrilgan rasmda hududlar kesimida biznesning tashqi savdodagi ulushi keltrilgan



Mintaqalar miqyosida kichik biznes subyektlarining import va eksportdagi faoliyatini oʻrganish, mamlakat iqtisodiyotining hududiy rivojlanish jarayonlari va oʻziga xos

jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Kichik tadbirkorlikning tashqi savdodagi ulushi, asosan, mintaqaning iqtisodiy salohiyati, yetakchi sanoat yo‘nalishlari hamda xalqaro savdo aloqalarining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu jarayonlarni tahlil etish kichik biznesning milliy va xalqaro bozorlar faoliyatidagi mavqeini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Poytaxt Toshkent shahri va Toshkent viloyati kichik biznesning import va eksport operatsiyalarida eng yuqori ulushga ega hududlar sifatida ajralib turadi. 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahri umumiy importning 35 foizini kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu natija poytaxtning iqtisodiy markaz sifatidagi strategik rolini hamda boshqa hududlar bilan savdo munosabatlaridagi yetakchi o‘rnini ifodalaydi. Toshkent viloyatida esa kichik biznesning importdagi ulushi 28 foizni tashkil etib, bu hududda sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining barqaror rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3351-son, 03.11.2017 y. – Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. – <https://stat.uz>. (2024–2025 yillar ma’lumotlari).
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari to‘plami. – Toshkent: Adolat, turli yillar nashrlari.
5. Moliya va bank ishi: O‘quv qo‘llanma / Tahrir hay’ati: A. Vahobov va boshq. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. – 11th Edition. Pearson, 2018.
7. Mishkin F. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – 12th Edition. Pearson, 2019.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari. – <https://cbu.uz>.
9. Jahon banki rasmiy sayti: O‘zbekiston bo‘yicha iqtisodiy sharh va hisobotlar. – <https://worldbank.org>.
10. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF). Uzbekistan Country Reports, 2023–2024. – <https://imf.org>.